



## O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY RESURSLARINI TAHLIL QILISH

*Yigitaliyeva Muxlisaxon*

*Andijon davlat texnika instituti*

*Muhandislik iqtisodiyoti va boshqaruv  
fakulteti “Bank ishi va audit” yo’nalishi*

*4-kurs K-116-21 guruh talabasi*

*Ilmiy rahbar: J.Q.Teshaboyev*

**Annotatsiya:** O’zbekiston bank tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligi tijorat banklarining moliyaviy resurslariga bevosita bog’liq. Moliyaviy resurslar banklarning asosiy faoliyatini amalga oshirish, kreditlash hajmini oshirish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish hamda mijozlarga keng qamrovli xizmatlar ko’rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar banklarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash, resurs bazasini kengaytirish va kapital yetarlilagini oshirishga qaratilgan. Ushbu maqolada O’zbekiston tijorat banklarining moliyaviy resurslari tarkibi, shakllanish manbalari, ularning o’sish dinamikasi va foydalanish samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, resurs bazasini diversifikatsiya qilish, likvidlikni ta’minlash va moliyaviy barqarorlikni oshirish bo’yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so’zlar:** tijorat banklari, moliyaviy resurslar, resurs bazasi, kapital yetarliligi, likvidlik, kredit resurslari, investitsiyalar, bank barqarorligi, moliyaviy tahlil, resurslarni boshqarish, raqobatbardoshlik, bank islohotlari.

**Аннотация:** Стабильность и конкурентоспособность банковской системы Узбекистана напрямую зависят от финансовых ресурсов коммерческих банков. Финансовые ресурсы играют ключевую роль в осуществлении основной деятельности банков, увеличении объема кредитования, финансировании инвестиционных проектов и предоставлении широкого спектра услуг клиентам. Проводимые в стране реформы направлены



на укрепление финансового потенциала банков, расширение ресурсной базы и повышение достаточности капитала. В данной статье проанализированы структура финансовых ресурсов коммерческих банков Узбекистана, источники их формирования, динамика роста и эффективность использования. Также разработаны рекомендации по диверсификации ресурсной базы, обеспечению ликвидности и повышению финансовой устойчивости банков.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, финансовые ресурсы, ресурсная база, достаточность капитала, ликвидность, кредитные ресурсы, инвестиции, банковская устойчивость, финансовый анализ, управление ресурсами, конкурентоспособность, банковские реформы.

**Abstract:** The stability and competitiveness of Uzbekistan's banking system are directly linked to the financial resources of commercial banks. Financial resources play a crucial role in carrying out the core activities of banks, increasing lending capacity, financing investment projects, and providing a wide range of services to clients. The ongoing reforms in the country aim to strengthen the financial potential of banks, expand their resource base, and improve capital adequacy. This article analyzes the composition of the financial resources of commercial banks in Uzbekistan, their sources of formation, growth dynamics, and the efficiency of their utilization. Recommendations are also provided on diversifying the resource base, ensuring liquidity, and enhancing the financial stability of banks.

**Keywords:** commercial banks, financial resources, resource base, capital adequacy, liquidity, credit resources, investments, banking stability, financial analysis, resource management, competitiveness, banking reforms.

## KIRISH

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanib borayotgani bank-moliya tizimi oldiga yangi talab va vazifalarni qo'ymoqda. Xususan, tijorat banklarining moliyaviy resurslarini to'g'ri shakllantirish va samarali boshqarish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Banklar iqtisodiyot subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlovchi asosiy moliya vositachilari sifatida o'z faoliyatlarini



kengaytirishi, investitsiya va kredit faoliyatini rivojlantirishi uchun kuchli resurs bazasiga ega bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bank sektorini isloh qilishga qaratilgan qator qaror va farmonlari tijorat banklarining moliyaviy salohiyatini mustahkamlash, kapital yetarlilikini oshirish, likvidlikni ta'minlash va bank tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishga xizmat qilmoqda. Xususan, tijorat banklarining resurs bazasini kengaytirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar banklarning kreditlash hajmini ko'paytirish, iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan moliyaviy oqimlarni kuchaytirish imkoniyatlarini oshirmoqda. Shu bilan birga, tijorat banklarining moliyaviy resurslari tarkibi, ularning shakllanish manbalari va foydalanish samaradorligi bank tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Mamlakatimizda banklar tomonidan jalg qilinayotgan omonatlar, xorijiy va mahalliy investitsiyalar, davlat va xususiy sektor moliyaviy ko'magi resurs bazasining asosiy qismini tashkil etmoqda. Biroq, banklar o'rtasida resurslarni jalg qilish va ulardan samarali foydalanish bo'yicha farqlar mavjudligi ushbu masalani chuqur o'rganishni taqozo etadi. Ushbu maqola O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy resurslari tarkibi, ularning shakllanish manbalari va o'sish dinamikasini tahlil qilish, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llarini aniqlash hamda bank tizimi barqarorligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tijorat banklarining moliyaviy resurslari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar va amaliy tahlillar sohani rivojlantirish uchun turli yondashuvlarni ilgari surmoqda. Jumladan, iqtisod fanlari doktori Sh.A. Nurmuxamedov o'zining ilmiy ishlarida bank resurslarini kengaytirish va kapital yetarlilikini oshirish bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan. Muallif, banklarning omonatlarni jalg qilish strategiyasini takomillashtirish, xorijiy investitsiyalarni jalg etish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini asoslab bergen.



Shuningdek, iqtisod fanlari nomzodi D.S. Ergashev tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlashda raqamli moliyaviy texnologiyalar, masofaviy xizmatlar va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik imkoniyatlarini o'rganib, ushbu yo'naliishlarda rivojlanish strategiyalarini taklif qilgan. Uning fikricha, banklar o'z resurs bazasini nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro moliya bozorlarida ham kengaytirishi zarur.

Xorijiy adabiyotlarda esa, J. Heffernan va P. Molyneux kabi tadqiqotchilar banklarning moliyaviy resurslarini boshqarishda diversifikatsiyalashgan yondashuv, risklarni minimallashtirish va likvidlikni saqlash strategiyalariga alohida e'tibor qaratgan. Ularning fikricha, moliyaviy barqarorlikka erishish uchun banklar resurslar manbalarini kengaytirishi va samarali boshqaruvi tizimini joriy qilishi zarur.

Maqolada quyidagi metodlardan foydalanildi:

- Ilmiy tahlil va umumlashtirish usuli – mavjud ilmiy va amaliy manbalarni tahlil qilish orqali xulosalar chiqarildi;
- Taqqoslash usuli – milliy va xorijiy banklarning moliyaviy resurslarini shakllantirish amaliyoti solishtirildi;
- Statistik tahlil – O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari va ularning dinamikasi o'rganildi;
- Ekspert baholash usuli – soha mutaxassislarning fikr-mulohazalari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ushbu metodlar asosida O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy resurslarini shakllantirish, boshqarish va samarali foydalanish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va kamchiliklar chuqur tahlil qilindi.

## NATIJALAR

O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy resurslarini o'rganish natijalari so'nggi yillarda banklar tomonidan resurs bazasini kengaytirish bo'yicha sezilarli harakatlar amalga oshirilayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, banklarning umumiyligi resurs bazasida aholidan va yuridik shaxslardan jalb qilinayotgan omonatlar yetakchi o'rin tutmoqda. Bu ko'rsatkich banklar faoliyatining barqarorligini ta'minlashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari va



xorijiy banklar bilan hamkorlik doirasida jalb qilinayotgan kredit liniyalari banklarning uzoq muddatli moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston tijorat banklarining umumiyligi moliyaviy resurslari yil sayin o'sib bormoqda. Jumladan, Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2022–2024-yillar davomida banklarning resurs bazasi hajmi o'rtacha 15–18 foizga o'sish sur'atini namoyon qilgan. Bu esa banklarning iqtisodiyotning turli tarmoqlariga kredit ajratish salohiyatini oshirganligini bildiradi. Ayniqsa, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish bo'yicha ajratilgan kreditlarning o'sishi aholi bandligini oshirishga xizmat qilmoqda. Biroq, resurs bazasini shakllantirishda hali hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud. Jumladan, ayrim banklarda mijozlar ishonchini qozonish va omonatchilar sonini ko'paytirish bo'yicha yetarli darajada faoliyat olib borilmayapti. Bu esa omonatlar ko'rsatkichining sust o'sishiga olib kelmoqda. Shuningdek, xorijiy investitsiyalar va kredit liniyalarini jalb qilishda ayrim banklar faol emasligi sababli, ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi tahdid ostida qolmoqda. Tahlillar shuni ham ko'rsatdiki, banklar tomonidan jalb qilinayotgan resurslarning tarkibi hamon tor doirada shakllanmoqda. Asosiy e'tibor ichki bozordan jalb qilinayotgan omonatlarga qaratilgan bo'lsa-da, xalqaro moliya bozorlarida faoliyatni kengaytirish imkoniyatlari yetarli darajada ishga solinmayapti. Shuningdek, banklarning kapital yetarliligi ko'rsatkichlari banklar o'rtasida turlicha bo'lib, ayrim banklarda bu ko'rsatkich xalqaro standartlardan past darajada qolmoqda. Umuman olganda, O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy resurslari tarkibi va o'sish tendensiyalari ijobjiy bo'lsa-da, ularni yanada diversifikatsiya qilish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va raqobatbardoshlikni oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur.

## MUHOKAMA

O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy resurslarini tahlil qilish jarayonida aniqlangan natijalar banklar resurs bazasining barqarorligi va o'sish tendensiyalarini ochib bermoqda. So'nggi yillarda banklar tomonidan resurslarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar moliyaviy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga olib kelgan bo'lsa-da, mavjud muammolar bank tizimining raqobatbardoshligini to'liq



ta'minlashga yetarli emasligini ko'rsatmoqda. Birinchidan, banklarning resurs bazasi tarkibida ichki bozordan jalb qilinayotgan omonatlar yetakchi o'rinn tutmoqda. Bu holat bir tomondan, aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortayotganidan dalolat bersada, ikkinchi tomondan, banklarning resurs manbalarini diversifikatsiya qilish imkoniyatlari yetarlicha ishga solinmayotganini ko'rsatadi. Banklar xalqaro moliya bozorlariga faol chiqishi, xorijiy investitsiyalar va kredit liniyalarini kengroq jalb qilishi orqali uzoq muddatli va arzon resurs bazasini shakllantirishi zarur. Ikkinchidan, banklarning kapital yetarliligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlar ayrim banklarda sust amalga oshirilmoqda. Ayrim banklarda kapital yetarliligi xalqaro standartlardan past bo'lib, bu holat ularning kreditlash salohiyatini cheklab qo'ymoqda. Shu bois, banklar o'z kapital bazasini mustahkamlash, qo'shimcha aksiyalar emissiyasini tashkil etish, strategik investorlarni jalb qilish orqali moliyaviy barqarorligini oshirishi zarur. Uchinchidan, banklar tomonidan jalb qilinayotgan resurslardan samarali foydalanish darajasi ham muhim ahamiyatga ega. Ba'zi banklarda jalb qilingan resurslarning kreditlashga yo'naltirilishi sustligi, resurslarning likvid aktivlarda ushlab turilishi ularning iqtisodiyotdag'i real sektorga ta'sirini cheklab qo'ymoqda. Banklar resurslardan maksimal darajada foydalanib, ularni investitsiya loyihalari va real sektorni moliyalashtirishga yo'naltirishi orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishi lozim.

## XULOSA

O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy resurslarini tahlil qilish natijasida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi. Birinchidan, banklar tomonidan aholidan va yuridik shaxslardan omonatlar jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida resurs bazasining hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Bu banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda jalb qilinayotgan kredit liniyalarini banklarning uzoq muddatli moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilayotgani kuzatilmoqda. Ikkinchidan, banklar resurslarini shakllantirishda ichki bozordan tashqari, xalqaro moliya bozorlariga chiqish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, strategik hamkorliklarni rivojlantirish orqali resurs bazasini diversifikatsiya



qilish imkoniyatlari yetarlicha ishga solinmayapti. Bu esa banklarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlashda xavf tug'dirishi mumkin. Uchinchidan, jalb qilingan moliyaviy resurslardan samarali foydalanish darajasini oshirish, ularni real sektorni moliyalashtirishga yo'naltirish, investitsiya loyihibalariga jalb etish orqali banklarning iqtisodiyotdagi faol ishtirokini kuchaytirish zarur. Bu borada banklar kredit portfellarini kengaytirishi, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rishi lozim. To'rtinchidan, bank xizmatlarini diversifikatsiya qilish, omonatchilar sonini ko'paytirish, mijozlar ishonchini oshirish uchun xizmatlar sifati va qulayligini yaxshilashga e'tibor qaratish zarur. Banklarning xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish, mijozlarga yangi mahsulot va xizmatlarni taklif etish orqali resurs bazasi barqarorligini ta'minlash mumkin. Umuman olganda, tijorat banklarining moliyaviy resurslarini kengaytirish, ularning tarkibini diversifikatsiya qilish, kapital yetarlilikini oshirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash bank tizimining barqarorligi va raqobatbardoshligini kuchaytirish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

### **ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-martdagি PQ-4621-sonli Qarori "Bank xizmatlari ko'lамини kengaytirish va moliyaviy inklyuziyani rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". Rasmiy hujjatlar portalı – lex.uz. <https://lex.uz/docs/4770824> (10.05.2025-yil holatiga ko'ra).
2. Nurmuxamedov Sh.A. O'zbekistonda bank xizmatlari bozorini rivojlantirish strategiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020. – 234 b.
3. Ergashev D.S. Tijorat banklarida moliyaviy resurslarni boshqarish va samaradorligini oshirish yo'nalishlari. – Toshkent: Fan, 2022. – 196 b.
4. Heffernan S., Molyneux P. The Economics of Banking. – London: John Wiley & Sons, 2019. – 335 p.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2024-yilgi statistik ma'lumotlari. – [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) (10.05.2025-yil holatiga ko'ra).
6. Qodirov A., Raxmonov S. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 175 b.